

UDC (UO‘K, УДК): 821.09-3 12.9

FENTEZI ASARLARI SEHRLI DUNYOSIDA REALISTIK UNSURLARNING BADIY TALQINI²³

Tursunova Mohira Ilxomjanovna

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Namangan davlat chet tillari instituti

E-mail: mohiratorsunova1105@gmail.com

Orcid-ID: 0009-0007-6629-2068

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy fentezi janrining badiiy-estetik mohiyati, uning poetik strukturalari va estetik funksiyalari tahlil etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi J.K.Rouling qalamiga mansub “Harri Potter” turkum asarlari misolida real va fantastik olamlarning sintezi asosida yaratilgan poetik modelning estetik mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Muallif zamonaviy fentezi janrining shakllanishida realizm elementlari va ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog‘liq autentik tafsilotlarning ahamiyatiga alohida e‘tibor qaratadi. Xususan, Rouling tomonidan yaratilgan xayoliy universumning ichki qonuniyatlari, aksiologik ishonarliligi, va o‘quvchi ongida qabul qilinadigan darajadagi mantiqiy asoslar bilan ta‘minlangani nazariy tahlil asosida ochib beriladi. Maqolada M.M.Baxtinning xronotop konsepsiyasi, poetik tahlil usullari hamda intertekstual yondashuv asosiy metodologik mezonlar sifatida tanlanib, asarlarning zamon va makon koordinatalari, syujet strukturalari va ideologik semantikasining o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy fentezi janrining badiiy jozibasi aynan realistik komponentlar bilan uyg‘unlashgan holda fantastik makon va zamon konstruksiyasi orqali vujudga keladi. Tadqiqot xulosasida esa, fentezi janrida ishonchli va estetik jihatdan mukammal poetik model yaratish uchun xayoliy voqeliklarning ichki mantiqi real hayot qonuniyatlari bilan muvozanatli uyg‘unlashuvi zarur ekani ilmiy asosda isbotlanadi.

KALIT SO‘ZLAR

Fentezi, xronotop, realizm, mifologiya, “Harri Potter”, J.K.Rouling, sehrli dunyo, real detal, fantastik obraz, o‘quvchi ishonchi.

Received: June 13, 2025

Accepted: July 12, 2025

Available online: September 3, 2025

²³**For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Tursunova M. Fentezi asarlari sehrli dunyosida realistik unsurlarning badiiy talqini. // Komparativistika (Comparative Studies). – 2025. – Vol.2, № 3(7) – B. 336-346.

ARTISTIC INTERPRETATION OF REALISTIC ELEMENTS IN THE MAGICAL WORLD OF FANTASY WORKS

Tursunova Mohira Ilkhamjanovna

PhD in Philology, Associate Professor
Namangan State Institute of Foreign Languages

E-mail: mohiratorsunova1105@gmail.com

ORCID-ID: 0009-0007-6629-2068

ABSTRACT

This article analyzes the artistic and aesthetic essence of the modern fantasy genre, its poetic structures, and aesthetic functions. The main objective of the research is to identify the aesthetic mechanisms of the poetic model created through the synthesis of real and fantastic worlds, using J.K.Rowling's "Harry Potter" series as an example. The author pays special attention to the importance of realistic elements and authentic details related to the socio-cultural context in shaping the modern fantasy genre. Specifically, through theoretical analysis, the study reveals that the imaginary universe created by Rowling is imbued with internal laws, axiological credibility, and logical foundations that are acceptable to the reader's consciousness. The article employs M.M.Bakhtin's chronotope concept, methods of poetic analysis, and an intertextual approach as the main methodological criteria to examine the interrelationship between the coordinates of time and space, plot structures, and ideological semantics of the works. The analysis demonstrates that the artistic appeal of the modern fantasy genre emerges precisely through the construction of fantastic space and time in harmony with realistic components. In conclusion, the study scientifically substantiates that to create a credible and aesthetically perfect poetic model in the fantasy genre, it is necessary to balance the internal logic of imaginary realities with the laws of real life.

KEYWORDS

Fantasy, chronotope, realism, mythology, Harry Potter, J.K. Rowling, magical world, real detail, fantastic image, reader's trust.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ РЕАЛИСТИЧЕСКИХ ЭЛЕМЕНТОВ В ВОЛШЕБНОМ МИРЕ ФЭНТЕЗИ

Турсунова Мохира Илхамжановна

Доктор философии по филологическим наукам
доцент

Наманганский государственный
институт иностранных языков

E-mail: mohiratorsunova1105@gmail.com

ORCID-ID: 0009-0007-6629-2068

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется художественно-эстетическая сущность современного жанра фэнтези, его поэтические структуры и эстетические функции. Основная цель исследования заключается в выявлении эстетических механизмов поэтической модели, созданной на основе синтеза реального и фантастического миров, на примере цикла произведений Дж.К. Роулинг «Гарри Поттер.» Автор уделяет особое внимание роли элементов реализма и аутентичных деталей, связанных с социокультурным контекстом, в формировании жанра современного фэнтези. В частности, на основе теоретического анализа раскрывается, что созданный Роулинг воображаемый мир, обладает внутренними закономерностями, аксиологической достоверностью и логическими основаниями, воспринимаемыми сознанием читателя. В статье с использованием основных методологических критериев (концепция хронотопа М.М. Бахтина, методы поэтического анализа и интертекстуальный подход) анализируется взаимосвязь временных и пространственных координат произведений, сюжетных структур и идеологической семантики. Проведенный анализ показывает, что художественная привлекательность современного жанра фэнтези возникает именно благодаря конструированию фантастического пространства и времени в их гармоничном сочетании с реалистическими компонентами. В заключении исследования научно обосновывается, что для создания достоверной и эстетически совершенной поэтической модели в жанре фэнтези необходимо сбалансированное сочетание внутренней логики воображаемой реальности с закономерностями реальной жизни.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Фэнтези, хронотоп, реализм, мифология, «Гарри Поттер», Дж.К. Роулинг, волшебный мир, реальная деталь, фантастический образ, доверие читателя.

KIRISH

Fentezi adabiyotning eng jonli va umrboqiy janri hisoblanmish ertak janridan kelib chiqqani, shubhasiz. Biroq, shuni alohida ta'kidlash lozimki, fentezi ertak bilan bir qatorda miflar bilan ham genetik jihatdan aloqadordir. Zero, fentezi aynan mif va afsonalardan bayondagi epiklik xususiyati va ma'lum bir boshlang'ich fojiviylikni o'zlashtirgan bo'lib, bizningcha bu epik bayonning oldindan belgilab qo'yilgani bilan qaysidir ma'noda bog'liqligiga aloqador. Fentezida ham, xuddi miflar va afsonalardagi kabi, garchi muqarrar o'lim kutib turgan bo'lsa-da, bosh qahramon oldindan belgilangan vazifani amalga oshirishi lozim. Fentezi, shuningdek, ko'ngilsizliklar va nohaqliklar qilich yoki vafodor ot kabi detallar yordamida hal etiladigan ritsarlik romanlaridan ham ayrim xususiyatlarni o'zlashtirgan bo'lib, ularning har ikkisida ham mardlik va or-nomus masalasi bosh qahramon uchun hamma narsadan ustundir. Farqi shundaki, fentezida ritsarlik romanlaridagi kabi adolat doim ham g'alaba qozonavermaydi. Biroq shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu har ikki janrda ham bosh qahramon doim razillik va nohaqlikka qarshi kurashadi.

ASOSIY QISM

Fentezi o'zining ko'rinishlari jihatidan juda xilma-xil bo'lib, uni boshqa yo'nalishdagi badiiy asarlardan ajratib turadigan bir qator xususiyatlarini ko'rsatish zarur, deb hisoblaymiz. Bu xususiyatlar odatda syujetni qurish va o'zga olamlarni yaratish kabi unsurlarni o'z ichiga oladi.

Badiiy asarning alohida kategoriyasi sifatida makon va zamon birligini tavsiflash uchun adabiyotshunos olim M.M.Baxtin tomonidan taklif qilingan "xronotop" atamasi qo'llaniladi. M.M.Baxtin "xronotop" atamasi orqali makon va zamon belgilarining ma'lum bir mazmunli butunlik kasb etishini nazarda tutadi. *"Bu yerda vaqt zichlashib badiiy ko'rinishga ega bo'ladi; makon esa kuchayadi va zamon, syujet, tarix bilan birga harakatga keladi. zamon belgilari makonda namoyon bo'ladi, makon esa zamon bilan idrok qilinadi va o'lchanadi"*. U adabiy

xronotopni janr va uning turlarini farqlash funksiyasi bilan aloqador deb hisoblaydi, uning adabiyotdagi shaxs obraziga ta'sirini qayd etadi (Бахтин М.М., 1975, 235).

Romantik yoki realistik adabiyotda bo'lgani kabi fantastik yo'nalishdagi asarlarda ham badiiy makon va zamon o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, boshqa yo'nalishdagi asarlardan farqlanadi.

Tez-tez fentezi mualliflari adabiy tanqidchilarga "Men yaratgan dunyo yer sayyorasi emas" qabilida javob beradigan vaziyatga duch kelamiz. Haqiqatan, ularning gapida mantiq bor: xayolot dunyosi haqiqatan ham bizning dunyomiz qonunlariga muvofiq yashamasligi kerak. Axir, fentezining sehrli olami, mavjudotlari, ulkan odamlari, uchar gilamlari, sehrli uzuklari, qudratli devlariyu uchar ajdarlari bor.

Amerikalik yozuvchi Rojer Jelyazniy fentezi asarlaridagi personajlarning voqe bo'lishi uchun ma'lum bir izohlar shart emasligini ta'kidlab shunday deydi: *"Fikrimcha, fentezi asarimda biror bir o'zga sayyoralik mavjudotni yaratgim kelsa, bu mavjudot aytaylik, to'rtta joduga r tomonidan yaratilgan golem (голем) bo'lishi ham mumkin. Men o'zim yaratayotgan bu mavjudotning tabiati haqida uzundan-uzoq izoh va tushunchalar berishim shart emas"* (Krulik T., 1989, 14).

Adabiyotshunos olim N.G.Komlevning fikricha, *fentezi poetik g'aroyib obrazlarga boy bo'lib, g'ayrioddiy, noreal voqea-hodisalar va xarakterlarni tasvirlaydi* (Комлев Н. Г., 2000, 106-210).

Yuqoridagi fikrlarni rad etmagan holda shuni ta'kidlash lozimki, sehrli olam tasvirini yaratish jarayonida mantiq va realizmning barcha dalillaridan voz kechish mumkin emas. Zero, bu asar voqealari va syujetlarining ishonarsiz tasviriga olib keladi. Fantastik asarda ajdarlar, sehrgarlar va daraxtlarni xas kabi silkitadigan devlaru ulkan odamlar bo'lishi mumkin. Ammo bosh qahramon dehqon bolasi, u ham real dunyodan kelgan bola bilan bir xil, shuning uchun u daraxtlarni ildizi bilan qo'porib olmaydi. Va agar bunday voqea sodir bo'lsa, fizikaning elementar qonunlari buziladi.

"Harri Potter" romanlar turkumi fantaziya, sarguzasht, detektiv, triller kabi turli janrlar xususiyatlarining kombinatsiyasidan iborat. Fentezida ikki – haqiqiy va

xayoliy olam o‘zaro qarama-qarshi qo‘yiladi va ana shu jarayonda bu ikki olam o‘zaro bir-biri bilan aralashib ketadi. Shunisi e‘tiborliki, bu turkum asarlarda sehr-joduning mavjud ekani uning xronotopiga ta’sir o‘tkazadi. O.A.Kostrova ta’kidlaganidek, *“aynan fantastik xronotop makonning egilishi, cho‘zilishi va siqilishiga sababchi bo‘ladi, vaqtning tezlashishi va sekinlashishi, asar qahramonlarining makon va zamondagi tezkor harakatlanishi va ko‘chishi, boshqa obyektarning yo‘qolishi, paydo bo‘lishi va tezkor harakatlanishiga imkon beradi”* (Кострова О.А., 2009, 28-33).

Asar voqealari 1990-yillar Angliyasidagi haqiqiy hayotga o‘xshash dunyoda tasvirlangan. Haqiqiy hayotdan farqli o‘laroq, Harri Potter dunyosida sehr-jodudan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘lgan sehrgarlar va jodugarlar oddiy odamlar orasida yashaydi. Oddiy odamlar, ya’ni magllar o‘zlarini yaxshi yashirganlari sababli sehrgarlarning mavjudligi haqida hech nima bilishmaydi. Sehrgarlar magllar orasida yashasalar-da, ularning o‘zlarining dunyolari bor. Ular magllardan mustaqil ravishda, ular bilan aloqa qilmagan holda yashaydilar. “Harri Potter” muallifi sehrgarlar dunyosini ideallashtirmaydi: u yerda, xuddi haqiqiy dunyoda bo‘lgani kabi, yaxshilik va yomonlik, hayot va o‘lim, baxt va muammolar mavjud.

Haqiqiy dunyo xronotopi xayoliy Littl Uinging shaharchasida joylashgan bir tor ko‘chadagi 4-uy orqali tasvirlangan.

Sehrgarlar dunyosi maktablar, banklar kabi rasmiy muassasalarning xronotoplari, shuningdek, sehrgarlar dunyosining yashash joylari va alohida hududlari kabi xronotoplar bilan ifodalangan. Haqiqiy va sehrlil dunyo o‘rtasidagi bog‘liqlik Londonda joylashgan Diagon xiyobonidir. Siz u yerga sehrlil tarzda faqat “Teshik qozon” mayxonasi orqali maxfiy kodni bilsangizgina borishingiz mumkin. Xogvartsga boradigan poezd esa $9\frac{3}{4}$ platformadan ketadi.

Londondagi oddiy odamlar uchun temir yo‘l vokzalidagi $9\frac{3}{4}$ platforma bu xayoliy uydirma narsa. Biroq sehrgarlar bunday deb o‘ylashmaydi. U erga odatiy Londondagi Kings-Kross temir yo‘l vokzalidan borish mumkin. Biroq buning uchun temir yo‘l va devor orqali o‘tish kerak. Bunday qilish esa oddiy odamlarning qo‘lidan kelmaydi. E‘tiborli tomoni shundaki, Kings-Kross Londondagi real va

hozir ham mavjud bo'lgan poezd stansiyasidir. Romanda bu joy nafaqat odamlar, balki sehrgarlar ham yig'iladigan joy sifatida tasvirlangan. Sarguzashtlar aynan shu yerdan boshlanadi va o'quv yili ham aynan shu yerda tugaydi. Platformalar o'rtasidagi to'siq – bu sehrli dunyo va oddiy odamlar dunyosini ajratib turadigan chegaradir. Umuman olganda, platformalari 9 raqami ham Joan Rouling tomonidan bekorga tanlanmagan deb o'ylaymiz. Chunki o'nlik sanoq tizimida 9 raqami so'nggi raqam, ya'ni chegara raqam hisoblanadi. Fikrimizcha, bu yerda 9 raqami ramziy ma'noga ega.

Joan Roulingning “Harri Potter” kitobidagi sehrgarlar dunyosi real dunyodan o'tib bo'lmaydigan chegara bilan ajratilmagan. Bu dunyolar doimiy ravishda o'zaro bog'liqlikda bo'lib, sehrli dunyo real dunyo ichida tasvirlangan. Joan Rouling tomonidan tasvirlangan dunyo batafsil o'ylab chiqilgan bo'lib, tavsif va tafsilotlarning ko'pligi, kvazitarix sanalari va aniq rivojlangan ichki mifologiyasi bilan ajralib turadi.

“Harri Potter”ning adabiy matnida ikkita hikoya uslubi aralashmasi mavjud: fantastik (tabiat qonunlarini buzishga yo'l qo'yiladigan) va realistik. Bayon davomida bu ikki uslubning ba'zan biri, ba'zan esa boshqasi ustunlik qiladi. Realistik fonda fantastik qo'shimchalar, va aksincha, fantastik fonlarda real qatlamlar kuzatiladi. Masalan, bosh qahramon Harri bir paytning o'zida ham ertak qahramoni, ham hozirgi davr o'quvchilari zamondoshi sifatida tasvirlanadi. Romanning antroponomik maydoni bir vaqtning o'zida real, mavjud dunyoni ham, fantastik, uydirma, sehrli olamni ham aks ettirish imkonini beradi” (Волкодав Т.В., 2006, 24).

Bundan tashqari, romanda real hayotda uchraydigan ko'plab narsalarni uchratish mumkin. Masalan, Asfodelus o'simligini olaylik. Asfodelus — bu Asphodelaceae oilasiga mansub ko'p yillik gulli o'simlik turi bo'lib, Karl Linney tomonidan ilk bor 1753-yilda tasniflangan. Bu o'simlik Yevropa, O'rtayer dengizi havzalari, Afrika, Yaqin Sharq mintaqasi, va Hindiston atroflarida o'sadi. Bu o'simlik bargi Italiyada pishloqni qisqa vaqt o'rab saqlash uchun ishlatiladi.

Turkiyaning Sharqiy Anatoliyasida esa bu o‘simlik ovqat tayyorlashda ham ma’lum bir maqsadda ishlatiladi.

Greklar mifologiyasida asfodel mashhur o‘simliklardan biri sanaladi va o‘liklar va yer osti dunyosiga oid qarashlar bilan bog‘liq holda ishlatiladi. Homer o‘liklar tashlanadigan makon – katta o‘tloqni qoplab turuvchi o‘simlik sifatida tasvirlagan. Odatda bu o‘simlikni qabrlar atrofiga o‘tqazishgan va o‘liklar dunyosi ma’budasi Persefona bilan aloqadorlikda bilishgan. Uning o‘lim tushunchasi bilan umumiy bog‘liqligi, albatta, uning barglari rangining kulrang va sariq rangga moyilligi bilan izohlanadi, zero bu ranglar greklar uchun yer osti dunyosining zulmati va o‘limning rangparligini anglatardi. O‘ta kambag‘al greklar esa bu o‘simlikning ildizini iste’mol qilganlar, shuning uchun bunday taom soyalar uchun mazali taom deb hisoblangan.

Bundan tashqari, asarda tarixda yashab o‘tgan ayrim mashhur shaxslar ismiga ham duch kelasiz. Masalan, Nikolas Flamel obrazini olaylik. Asarda yozilishicha, Hermiona kitobdan Flamel haqida ma’lumotni do‘stlariga o‘qib beradi. U yerda yozilishicha, Flamel 665 yoshda bo‘lib, Faylasuflar toshining yagona sohibi hisoblangan. Bu tosh yordamida har qanday metalni oltinga aylantirish va abadiy hayot bag‘ishlovchi Hayot eleksirini tayyorlash mumkin bo‘lgan. Gap shundaki, Nikolas Flamel real shaxs bo‘lib, 1330-1418-yillarda Fransiyada yashab o‘tgan. U kitob savdosi bilan shug‘ullangan. Bundan tashqari, Faylasuflar toshi hamda Hayot eleksirini yaratish maqsadida alximiya bilan shug‘ullangan.

Ko‘rib turganingizdek, Joan Rouling fantastik olamida real olamdagi biz uchun tanish bo‘lgan obyektlar ham mavjud ekan.

Aslini olganda, fentezi ertak bo‘lib, u oddiy ertakdan faqat xronotopining bir oz o‘zgachaligi bilan, shuningdek, o‘zida kuchli realizm zaryadini mujassam etgani bilan farq qiladi. Fentezida makon ertakka nisbatan kengroq va vaqt esa nisbatan hozirgi zamonga yaqinligi bilan ajralib turadi. Fentezidagi ko‘plab elementlar hozirgi zamonda mavjud obyektlardir. Aksariyat ertaklardagi zamon kategoriyasida mavhumlik va noaniqlik mavjud. Shunisi aniqki, xalq ertaklarida o‘tgan zamon

anglashiladi. Fentezidagi zamon kategoriyasi esa uzoq o'tmishni emas, balki qaysidir ma'noda bizning zamonimizga yaqin zamoni eslatadi.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, fentezida realizm yo'q ham bo'lishi mumkin, lekin reallik bor bo'lishi lozim. Muallif o'quvchini o'zi yaratgan dunyoni, uning qonuniyatlari, voqeliklari, uning xalqlari mentaliteti, qahramonlari hamda shunga o'xshash mayda-chuyda detallar va tafsilotlargacha ishonarli va mantiqiy tasvirlash, ishontira olish uchun baribir real narsalardan foydalanishga majbur. Personajlar va muallif qonunlarni turli usullarda buzishni boshlashlari bilan realizm yo'qoladi. Agar muallif tomonidan belgilab qo'yilgan qonunlar hech qanday sababsiz buzila boshlasa, eng aql bovar qilmaydigan va go'zal dunyo ham o'quvchi ko'z o'ngida jozibadorligini yo'qotadi. Bu qonunlarni qanday o'ylab topish, ularni qanday asoslash va ishlashga majbur qilish esa yozuvchi mahoratiga bog'liq.

XULOSA

Fentezi asar muallifi o'zga dunyoni yaratar ekan, nafaqat sehr kuchi ishlaydigan qoidalarni tasvirlashi, balki fizika, biologiya va tabiat qoidalariga ham e'tibor qaratishi lozim. Fantast yozuvchi o'z xayolotida qanday dunyo yaratmasin, uning asari bizning dunyomiz tajribasini hisobga olgan holda o'qilishini hisobga olishi kerak. Xoh real dunyoda bo'lsin, xoh xayoliy dunyoda bo'lsin, hamma narsa asoslangan bo'lishi kerak. Zero, hech narsa "shunchaki" bo'lishi mumkin emas. Aks holda o'quvchi ongida ro'y berayotgan voqealarga beixtiyor ishonchsizlik paydo bo'ladi va asar jozibasi yo'qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе. Очерки по исторической поэтике / М.М. Бахтин // Вопросы литературы и эстетики. – Москва: «Художественная литература», 1975. – 564 с.
2. Krulik T. A Few Words from Roger Zelazny. — Lunacon, Tarrytown, NY, 1989. – 33 p.

3. Комлев Н. Г. Словарь иностранных слов. – Москва: «Эксмо-Пресс», 2000. – 238 с.
4. Кострова О.А. Пространственно-временная организация художественного мира в произведениях Дж.К. Роулинг // Университетские чтения. – Пятигорск: Пятигор. гос. лингвист. ун-т, 2009. – 395 с.
5. Волкодав Т.В. Структурно-типологические и лексико-семантические параметры литературной сказки Д. К. Роулинг и ресурсы их передачи на русский и немецкий языки: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Краснодар, 2006. – 180 с.
6. Тодоров Ц. Введение в фантастическую литературу. – Москва: “Дом интеллектуальной книги”, 1997. – 170 с.
7. Пивоев В.М. Мифологическое сознание как способ освоения. – Петрозаводск: Карелия, 1991. – 210 с.
8. Ковтун Е. Н. Художественный вымысел в литературе XX века. – Москва: «Высшая школа», 2008. — 408 с.
9. Галина М. С. Фантастика глазами биолога. – Липецк: Издательский дом «Крот», 2008. – 96 с.
10. Ковтун, Е. «Истинная реальность» fantasy (Текст) / Е. Ковтун // Вестник Московского университета. Серия 9. Филология. - 1998. - № 3. – С. 106-115.

REFERENCES:

1. Бахтин, М. М. (1975). *Формы времени и хронотопа в романе. Очерки по исторической поэтике*. В *Вопросы литературы и эстетики* (с. 564). Москва: Художественная литература.
2. Krulik, T. (1989). *A few words from Roger Zelazny*. Lunacon, Tarrytown, NY.
3. Комлев, Н. Г. (2000). *Словарь иностранных слов* (238 с.). Москва: Эксмо-Пресс.
4. Кострова, О. А. (2009). Пространственно-временная организация художественного мира в произведениях Дж. К. Роулинг. *Университетские*

чтения, 395 с. Пятигорск: Пятигорский государственный лингвистический университет.

5. Волкодав, Т. В. (2006). *Структурно-типологические и лексико-семантические параметры литературной сказки Д. К. Роулинг и ресурсы их передачи на русский и немецкий языки* [Автореферат кандидатской диссертации]. Краснодар.
6. Тодоров, Ц. (1997). *Введение в фантастическую литературу* (170 с.). Москва: Дом интеллектуальной книги.
7. Пивоев, В. М. (1991). *Мифологическое сознание как способ освоения* (210 с.). Петрозаводск: Карелия.
8. Ковтун, Е. Н. (2008). *Художественный вымысел в литературе XX века* (408 с.). Москва: Высшая школа.
9. Галина, М. С. (2008). *Фантастика глазами биолога* (96 с.). Липецк: Издательский дом «Крот».
10. Ковтун, Е. (1998). «Истинная реальность» fantasy. *Вестник Московского университета. Серия 9. Филология*, (3), 106–115.